



**Tadqiqot uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

# 2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



# №23

25 декабрь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2020**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 36 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Ahmedova Ra'no Yuldashevna</b> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHAMIZ.....	7
<b>2. Кулмуродов Файзулла</b> ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА АМИР ТЕМУРНИНГ ЎРНИ.....	9
<b>3. Abriev Hazratqul Buronovich</b> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAVDO-SOTIQ INSHOATLARI.....	11
<b>4. Zulfiyeva Manzuraxon Xoshimovna, Mamasaitova Umida Qaxramonovna</b> TARIX VA GEOGRAFIYA FANLARINING UMUMIY JIXATLARI.....	13
<b>5. Masharipov Mansurbek Masharipovich, Qo'shchanova Ro'zika Erkavoy qizi</b> BENBUDIY PUBLISISTIK ASARLARI LEKSIKASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	15
<b>6. И.А.Рахмонова</b> САМАРҚАНД ДАВЛАТ МУЗЕЙ-ҚУРИҚХОНАСИДА САҚЛАНИЁТГАН НОЁБ ИЛМИЙ ВА ДИНИЙ КИТОБЛАР .....	17
<b>7. Мустофаев Муроджон Олтибоевич</b> ПАНТУРКИЗМ МАФКУРАСИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ЁНДАШУВЛАР ТЎҒРИСИДА.....	20
<b>8. Ergashev Shohrux Kamoliddin o'g'li</b> QULOQLASHTIRISH SIYOSATINING QURBONI BEGIMQUL SO'FI HAQIDA XOTIRALAR .....	22
<b>9. Mannonova Zilola Kamoliddinovna</b> O'QUVCHILARGA TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.....	24
<b>10. Nigora Oripova Abdusamadovna</b> AMIR TEMUR DAVRIDA MADANIYATNING RIVOJLANISHI.....	26
<b>11. Safarova Navbahor Zoyirovna</b> TARIX FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI DARSLARDAN FOYDALANISH.....	28
<b>12. Abdullayeva Ma'mura Boltayevna</b> XIVA CHODRA HOVLI SAROYI XVIII –XIX ASR.....	29
<b>13. Djo'rayev Rustam G'ulomjonovich</b> TARBIYA FANINING MOHIYATI VA VAZIFALARI.....	30
<b>14. Nurmatov Vohidjon Shakarboyevich</b> TARIX FANINI O'QITISHDA AXBAROT TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.....	31
<b>15. Obidov Oybek Maxmudovich</b> TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR.....	32
<b>16. Hamroyeva Zamira Nuriddinovna</b> QADIMGI DUNYONING YETTI MO'JIZASI .....	34



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHAMIZ

*Ahmedova Ra'no Yuldashevna  
Qoraqalpog'iston respublikasi  
Amudaryo tumani Mang'it shahari  
36- maktab rus tili fani o'qituvchisi*

*Hokimiyatga pul bilan erishgan odam  
undan daromad olishga intiladi.  
Aristotel*

Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqib boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi.

– Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sa'y-harakatlar zoe ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi.

Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan "Artxashastra yoxud Siyosat ilmi" kitobi davlatni boshqarish va xo'jalik yuritish mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. "Artxashastra"ning 26-bo'limi korrupsiyaga bag'ishlangan. Bo'limda korrupsiya "o'zlashtirish" iborasi orqali izohlanadi: "Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo'l cho'zish o'zlashtirishdir. Bu holatda narxi yuqori bo'lgan buyumlarni o'zlashtirganlik uchun o'lim jazosini qo'llash, narxi o'rtacha bo'lgan buyumlarni o'zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo'lgan mulklarni o'zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim". "Artxashastra"da poraxo'rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdor shaxs vaqti-vaqti bilan xalq to'planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytiladi: "Biron bir boshliqdan zarar ko'rganlar bo'lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar".

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko'p. Ulardan biri Payg'ambarimizning mana bu qarg'ishlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la'nati bo'lsin!". Yana ul zot aytadilar: "Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!".

Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Axloqi muhsiniy" asarida shohzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergan edi:

"Ummollardan (ish yurituvchi amaldorlar) pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi".

XX asrga kelib Shvesiya, Singapur, Yangi Zelandiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda korrupsiyani qattiq jilovlashga muvaffaq bo'lindiki, mazkur davlatlar fuqarolari va davlati orttirgan tajriba barchani korrupsiyaga qarshi kurashga ruhlantirmoqda. Hozirgi davrdagi "korrupsiya" tushunchasini sharhlaydigan bo'lsak, u asosan, "shaxsiy foyda olish uchun



hokimiyatni suiiste'mol qilish” ma'nosida ishlatiladi. Korrupsiyaning quyidagi to'rt asosiy sababini keltirish odat tusiga kirdi:

1. Shaxsiy sabablar. Korrupsiya “yomon” hodisa, u yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo'ladi.

2. Institutsional sabablar. Bunda boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo'lishi kabilar korrupsiyani rag'batlantiruvchi omillardir.

3. Tizimiy sabablar. Hukumat ba'zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan bo'ladi yoxud ular ko'p miqdorda mablag' talab etadi va aksar holda uzoq muddatlarga cho'ziladi. Shunday holatlarda korrupsiyaga to'g'ri-dan-to'g'ri va qisqa yo'llar ochiladi.



## ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА АМИР ТЕМУРНИНГ ЎРНИ

*Қулмуродов Файзулла  
Қашқадарё вилояти Яққабоб тумани  
8-мактаб тарих фани ўқитувчиси  
Телефон: +998919597168*

**Аннотация.** Мақолада муаллиф тарих фанидан Амир Темур мавзусини ўтишда педагогик технологиялардан фойдаланиш ва уларнинг самарадорлигини методлар асосида кўрсатиб берган.

**Калит сўзлар.** Додхоҳ, садри аъзам, ясовул, мухтасиб, соҳибқирон, моли омон, ҳазора, айл, қўшун, туман оғаси, мириҳазора, айлбоши, “Таржимон ўйини”, “Тарихий диктант”, “БББ”, “Заковатли зукко”.

Ҳаммамиз яхши биламизки, тарихда машҳур жаҳонгирлар кўп ўтган. Лекин айтинг, дунёнинг қайси ерида, қайси замонда Амир Темурдек буюк саркарда, Амир Темурдек буюк давлат арбоби, Амир Темурдек илм-фан, маънавият ва руҳоният ҳомийси бўлган?!

Амир Темур умрининг мазмунини “Миллатнинг дардига дармон бўлишдан иборат”-деб билган. Ул зотни биз авлодларга қолдирган нодир меросини ўрганиш, таҳлил этиш давр талабидир. Таъбир жоиз бўлса, Амир Темур озодлик ва яратувчилик тимсоли сифатида халқнинг хотирасига ва ардоғига айланганлигини ҳам ёшлар онги ва қалбига сингдириш кераклигини айтишимиз мумкин. Бу эса умумтаълим мактабларида тарих дарсларида Амир Темур шахсини ўрганишда илғор педагогик технологиялардан самарали фойдаланишни тақозо этади.

Масалан, буюк соҳибқирон таваллудига бағишланган кечалар, кўрик-танловлар, очик дарслар ҳам шулар жумласидандир. Дарс машғулотида давомида қуйидаги методлардан унумли фойланиш мумкин: “Таржимон ўйини”, “Тарихий диктант”, “БББ”, “Заковатли зукко” каби ўйинлар соҳибқирон мавзусини ўрганиб мустаҳкамлашда айни муддао.

**1. “Таржимон ўйини”.** Бунда мавзуга доир тушунилиш даражаси қийин бўлган сўзлар изоҳи сўралади ва қуйидагича карточкалар тарқатилади:

1	Додхоҳ	А	жаҳонгир, саодатли, зафарли, ғолиб ҳукмдор
2	Садри аъзам	Б	шариат қоидалари ижроси, бозордаги тартибни назорат қилувчи
3	Ясовул	С	вақф мулклари бошқарувчиси
4	Мухтасиб	Д	шикоятларни кўрувчи
5	Соҳибқирон	Е	ўлпон
6	Моли омон	Ф	Ҳукмдорнинг шахсий топшириғини бажарувчи

Жавоб: 1 – Д, 2 – С, 3 – Ф, 4-Б, 5-А, 6-Е.

1	Айлбоши	А	минглик қўшин
2	Мириҳазора	Б	юзликлар ва ўнликлар учун ҳарбий мансаб
3	Туман оғаси	С	минглик бўлинмалар учун ҳарбий мансаб
4	Қўшун	Д	ўнлик бирикмаларига бўлинган қўшин
5	Айл	Е	ўн минглик қўшин учун ҳарбий мансаб
6	Ҳазора	Ф	юзлик қўшин

Жавоб: 1 – Б, 2 – С, 3 – Е, 4-Ф, 5-АД, 6-А.

Юқоридаги усул орқали ўқувчиларда луғат билан ишлаш мотиви туғилади. Кейинги метод бу “**Тарихий диктант**” методидир. Бу диктант соҳибқирон Амир Темурнинг ўғитларига бағишланади. Бунда кичик гуруҳ аъзолари тушириб қолдирилган сўзларни топишлари керак бўлади. Саволлар тақсимланиб тарқатма материал сифатида гуруҳларга тарқатилади.

1. Ишбилармон мардлик ва шижоат соҳибиди, ..... ва хушёр бир киши минг-минглаб табирсиз, лоқайд кишилардан..... .

**Жавоб:** *азми қатъий тадбиркор, яхшидир.*

2. Ақлли ..... жоҳилу нодон .... яхши.

**Жавоб:** *душмандан, дўст.*



3. Кам енглар – очарчилик кўрмасдан ..... яшайсизлар, кам ухланглар - ..... эришасизлар, кам гапиринглар - ..... бўласизлар.

**Жавоб:** *бой бадавлат, мукаммалликка, доно.*

Бу каби саволлар сонини кўпайтириш ўқувчиларнинг диққатини янада жамлашга хизмат қилади.

Навбатдаги метод “**Заковатли зукко**” ўйини. Бу ўйинда мантиқий саволлар билан мурожаат қилиниб ўқувчиларнинг фикрлаш даражаси аниқланади. Масалан:

1. Соҳибқирон Амир Темурнинг икки устози бўлган. Нима учун у биринчи устози кулол Шамсиддиндан жуда миннатдор бўлади?

**Жавоб:** *Устози кулол Шамсиддин соҳибқиронга чап қўлда ҳам ёзишни ўргатган. Амир Темур ўнг қўли яраланганда ҳам чап қўли билан бемалол жанг қила олгани учун устозидан миннатдор бўлган.*

2. Амир Темур жангдан кейин қолган аскарларнинг сонини қандай аниқлаган?

**Жавоб:** *Ҳар бир аскар жангга кетишдан олдин ўзига тегишли тошни ташлаб кетган. Жангдан тирик қайтган аскар тошни олган. Қолгани эса уларнинг жангда халок бўлганини билдирган.*

3. Амир Темурни ёқтирмаган, ўзи билмаган ва истамаган тарзда ҳали ҳеч ким битмаган, қўл урмаган ва журъат этолмаган мавзунини ёритиб, келгуси авлод учун қимматли гувоҳлик қолдирган инсон ким ва қандай мавзу?

**Жавоб:** *Ибн Арабшоҳ, Амир Темурнинг махфий хизмати.*

Юқоридаги усулларни ташкил этишда саволларни бойитиш дарсининг технологик харитасига боғлиқ.

Демак, кўриниб турибдики Амир Темур ҳаётини ўрганиш ва мустаҳкамлаш жараёнида турли методик ўйинлардан, услублардан фойланиш дарс самарадорлигини ошириш учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Темур тузуклари”. Тошкент 2016.

2. Амир Темур. Б.Аҳмедов.Т.2000.

3. Йўлдошев. Ж., Усмонов.С Педагогик технология асослари, Тошкент. 2004.



## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAVDO-SOTIQ INSHOATLARI

*SamDU tayanch doktoranti.  
Abriev Hazratqul Buronovich  
Tel.+998915365154.  
hazratqula@gmail.uz.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriy hukumdorlar SHohruh Mirzo va Sulton Husayn Boyqaro davrlarida Hirot shahrida ilm-fan, madaniyat, me'morchilik sohalarida erishilgan yutuqlar, jumladan me'moriy obidalar, ayniqsa masjidlarning bunyod qilinishi yuksak taraqqiy etganligi ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar.** Xuroson, Hirot, Hofiz Abru, Saroy, Hisor, Masjid, SHohruh, Husayn Boyqoro, Feruzshoh, Alisher Navoiy, Ustod SHamsiddin, Xondamir, shaharsozlik, jarib, ganj, naqqoshlik, sangtarosh.

Sharqning shaharlari iqtisodiy va ijtimoiy hayotida bozor doimo muhim rol oʻynagan. Amir Temur va Temuriylar davri shaharsozligida bozorlar asosiy koʻchalar va ularning kesishuv nuqtalarida joylashgan, shahar bunyod etiltishi rejalashtirishda bu omil muhim ahamiyatga kasb etgan. Bozor rastalarini hudud shunday joylashtirish quruvchilarga oʻziga xos vazifalarni belgilab berdi. Bunda qulay oʻtish joylarini yaratish, odamlarning harakat yunalishi va kelayotgan savdo karvonlariga qoʻlaylik yaratish, bozor joylashgan koʻchani yaxshi yoritish, ayni paytda quyoshdan va yomgʻirdan panoh topish, doʻkonlar va ustaxonalarni shunga mos joylashtirish kabilar jixatlarni hisobga olish zarur edi. SHarqda shahar bozorlar tuzilmalar asrlar davomida shakllangan va tartibli bozorlar tuzilmasi shakllangan boʻlib, XIV-XV asrlarda ham bu jixatga alohida oʻrgʻu berilgan edi [1]. Bu davrda bozorlar cavdogarlar va hunarmandlar yoki amaldorlarning shaxsiy tashabbusi bilan emas, balki shaharlarni qayta qurish va takomillashtirish bilan bogʻliq yirik hukumat tadbirlari tartibida ishlab chiqilgan, alohida bir ansambl tamoyillari asosida yaxlit echimlari yaratildi. Misol uchun, 1404 yilda Samarqandda yangi bozor koʻcha bunyod etilgan, u butun shahar boʻylab kesib oʻtdib shahar markazi (Registonni) Ohanin darvozasi bilan bogʻlagan. Bu bozor koʻchasi qurilishi toʻgʻrisida Klaviho shunday yozadi: «Koʻcha juda keng edi va har ikki tarafida doʻkonlar qurildi. Har bir doʻkon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland oʻrindiqlar joylashtirildi. Barcha doʻkonlar ikki qavatli boʻlib, butun koʻchani yuqorisidan yoritadigan oyna qoplangan. Doʻkonlarni qurish ishlari tugallangach, savdogarlar darhol ularni egallab, unda turli narsalarni sotdilar [2]. Bozorlar tuzilmasida SHohruhning Hirotida amalga oshirgan qurilishlari Samarqanddagi qurilish miqyosidan kam emas edi. Hirotida bozor binolari shaharni kesib oʻtuvchi ikkita asosiy bozor koʻchalari boʻylab choʻzilgan va ular qad koʻtargan qadimiy bozor Malik darvozasiga olib kelingan. Xafozi Abru maʼlumotiga koʻra: «Bozorlarning yoʻllari avval yopilmagan shahar aholisi chang va yomgʻirdan koʻp zarar koʻrgan. SHohruh buyrugʻiga binoan qoʻyilgan Karvonsaroy va Rabotlar bunyod etilgan. Bulardan biri Hirot viloyatida Qush Rabat, ikkinchisi Qirgʻizistondagi Tosh Rabot [3].

Rabotlar asosan pishgan gʻisht qurilib baland gumbazlar bilan qoplangan va gumbazda yorugʻlik tushishi uchun teshiklarni qoldirdi. Kuzatuvchilarning koʻzlarini quvontirgan yumaloq gumbaz va yuqori qavatdan iborat edi. Bozorlar va bozorlar joylashgan hududlar shaharlar hayotida muhim ahamiyat kasb etib, baʼzilar, yopiq gumbaz tuzilmalari shaklida emas, balki ochiq bozorlardan iborat edi. Amir Temur va Temuriylar davrida shahar ichidan tashqari shahar atrofida ham bozorlar joylashgan. Huddi shunday bozorlardan Hirot shahridagi tashqi bozorlar hisoblanadi. SHunday bozorlar Hirot shahar darvozalari chegarasidan tashqarida bir farsax (5-6 km) ga qadar choʻzilib Malik darvozalariga yaqin shaharning shimolida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan qurilgan Chorsuv Temuriyzoda Alovudavla nomi bilan atalgan. XV asrda chiziq boʻylab choʻzilgan bozor majmualaridan tashqari, koʻchalar kesishmasida paydo boʻlganlar alohida gumbazli binolar ham boʻlib, bunday inshootlar timlardir. Ular odatda maʼlum bir turdagi maxsulotlar nomi bilan bogʻlangan va koʻpincha badavlat insonlar va hukumdorlar tomonidan musulmonchilik aqidalariga muvofiq vaqflar sifatida berildi. YOzma manbalarda Temuriylar davrida Samarqanddagi Timi Kulax Furushon (Registonda) malika Tuman oqo tomonidan tikilgan bosh kiyimlar sotiladigan gumbazli bozor haqida soʻz yuritadi [4]. Hirot shahrida esa, Timi Toqi Furushon va boshqa bir necha ixtisoslashgan bozorlar XV asrda bu inshootlarga oʻxshash binolar Buxoro shahrida 1586-1587 yilda Abdullaxon tomonidan tikilgan bozor Toqi Zargaron. Uning nomi koʻp yillik zargarlik doʻkonlari va ustaxonalar bilan bogʻliq. SHu orada, Vosifiy 1513 yil voqealari haqidagi soʻz yuritib Buxoro



madrasini Ulug‘bek Mirzoning qurdirganini CHosusini yaqinida deb ma’lumot beradi. [5]. Bundan shu ko‘rinadiki, Buxoroda Taqi Zargarondan boshqa Temuriylar davriga tegishli bo‘lgan chorsuv ham mavjud ekanligi bildiradi. O‘rta asrlarda shakllangan Buxoroning ikki ko‘chasi kesishmasida bozorlar shakllangan. Bundan shu ayon bo‘ladiki, Buxoroda SHayboniylar davrida me‘morchilik ishlari Amir Temur va Temuriylar davri ananalari bevosita davom ettirilgan. SHaharlar hayotida bozorlar muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga asosiy ma’lumot tarqaluvchi joy ham edi. SHahar bozorlari ichki gallereyasi va markaziy makonga ega bo‘lgan to‘g‘ri turtburchak shaklida mavjud bo‘lib, uning ustiga katta gumbaz tashlanadi, deraza orqali kesiladi va qalqonsimon suzib yuruvchi tizimga asoslangan. Gallereyadan va asosiy yo‘llardan ichki do‘konlari bor va tashqi perimetrda ustaxonalar mavjud. Kubikli shiftlardagi oqilona tizimi binoning ichki qismini keng ko‘rinishini, tashqaridan esa gumbazning markaziy kubogiga o‘tib chiqadigan gumbazlar guruhini tashkil qiladi. SHarq mamlakatlarning tijoriy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror binolar shahar tashqarisida va atrofida, tog‘lar oralig‘ida va karvon yo‘llari bo‘ylab qurilgan karvonsaroylar orqali olib borilgan. Karvonsaroylar asksriyat hollarda hokimlar, hukumdor sulolaning qarindoshlar, boy savdogarlar tomonidan bunyod etilar va bu davlat oldidagi shu shahsning maqomini belgilar hamda o‘ziga hos xayriya aksiyasi sifatida baholanardi. Amir Temur va Temuriylar davrida bunday ko‘plab binolar barpo etildi. Bizning kunlarigacha karvonsaroylar va chorsuvlar deyarli etib kelmagan. Faqat Hirot viloyatida, Hirot dan Meruchakgacha bo‘lgan qadimiy yo‘lda Qushrabot karvonsaroyi saqlanib qolgan holos [1]. Tarixchilarning ma’lumotiga ko‘ra, u Alisher Navoiy tomonidan qurdirilgan [6]. Ushbu yodgorlikning konstruktiv xususiyatlari XV asrning ikkinchi yarmida bunyod etilganligini kursatadi. Qushrabot to‘rtburchak shaklda qasr bilan ajratilgan va chortoq hamda qish mavsumida hayvonlarni joylashtirish uchun ajratilgan mahsus bino, to‘g‘ri yo‘l joylashtirilgan (yozda foydalaniladigan ochiq pens va konkordlar). Bundan tashqari karvonsaroyda ikkita ayvon hovlining asosiy tizmasida gumbazli masjid uning sharqiy va janubiy qismlarida quriqchilar istiqomat qiladigan hujralar, gallereya va mehmonxona bunyod etilgan. Dekorativ dizaynda geometrik naqshlarning bir nechta kurinishi shakllantiruvchi (Temuriylar davriga xos) g‘ishtdan qurilgan o‘ziga xos binolar bo‘lib, karvonsaroy faqat karvonlar uchun panoh bo‘lish uchun emas, balki harbiy yurishlarda qo‘shin uchun mo‘ljallangan muhim inshoot hisoblanadi. Bunday qo‘rilish inshootlari Qirg‘izistonning tog‘li hududida ham saqlanib qolgan. Bu Toshrobot bo‘lib, uni Mo‘g‘uliston hukmdori Muhammadxon 1408-1415 yillarda bunyod etirilgan. [7]. Bino Qoshqar arxitekturasi konstruktiv an‘analari asosida qurilgan bo‘lib, shuning uchun Markaziy Osiyo amaliyotida kamdan-kam qo‘llaniladigan katta toshlardan foydalanishga ro‘xsat berilgan. Rabot kichik 32x32 m hajmda bino bo‘lib, unda unga yaqin turli xonalar, uzun gallereyalar, kichik turar-joylar, masjid va mehmonxona, uch qavatli zali bilan xarakterlanadi. Inshootning sharq tomonida yumaloq minora bunyod etilgan. Bundan shuni kurish mumkinki, Toshrobot Temuriylar davrida bunyod etilgan ko‘plab karvonsaroylarning me‘morchilik ananalar takrorlaganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davrida davlat, shaharlar va oddiy insonlar hayotida karvonsaroylar, chorsuvlar, tim va toqlar hamda bozorlar inshootlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shuki, bozor inshootlar nafaqat, savdo-sotiq uchun mo‘ljallangan inshootlar balki, asosiy ma’lumot almashinuv ajoyi ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Пугаченкова Г. Зодчество Центральной Азии. XV век. Ведущие тенденции и черты. Т. Изд. литературы и искусства. 1976 г. 116 с. с. ил., черт. (Ин-т искусствоведения им. Хамзы Хакимзаде Ниязи Министерства культуры УзССР). Список лит.: с. 108—115. 48, 49 сг

2. Де Клавихо Рюи Гонзалес. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд в 1403—1406 гг. Пер. И. И. Срезневского. СПб., 1881 г. с. 317

3. П у г а ч е н к о в а Г. А. Памятники архитектуры Средней Азии эпохи Навои. Труды САГУ, вып. 108. Ташкент, 1958 г. 96, с. 183

4. Бородин И. Ф. Интерьер мавзолея Ак Сарай в Самарканде. «Архитектурное наследие», № 17, 1964 г. с. 98.

5. Васфий Зайнадин. Бадой ал-Вакои. (Рук. XVI в.; отрывки в перев. А. Н. Болдырева — в кн. «Зайнадин Васифи». Сталинабад, 1957). с. 134

6. Хондемир. Хабиб ас-Сийяр. (Изд. С. Насифи. Тегеран, 1954/55).

7. Всеобщая история архитектуры. Т. 8. М., 1969 г. с. 3; 149; 167



## TARIX VA GEOGRAFIYA FANLARINING UMUMIY JIXATLARI.

*Zulfiyeva Manzuraxon Xoshimovna*  
*Andijon viloyati Marhamat tumani*  
*№ 16-maktab o'qituvchisi*  
*Telefon: +998 91 601 66 76*  
*Mamasaitova Umida Qaxramonovna*  
*Andijon viloyati Marhamat tumani*  
*№ 16 -maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktablarda tarix va geografiya fanidan dars berib kelayotgan xamkasblarimizda shu fanlarni o'qitishda vujudga kelayotgan, o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishlarida qiyinchilik tug'dirayotgan ayrim muammolar va ularni hal etishga takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, geografiya, tarix, qiyin atamalar, murakkab fikr, tushuncha, jadvallar asosida ishlash, soddalashtirish, qulaylashtirish.

**Kirish.** Kelajak avlodga to'g'ri tarbiya berishda, milliy qadriyatlarimizni singdirib borishda, ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy me'rosidan boxabar etib borishda maktablarda o'qitilayotgan tarix fanining o'rni beqiyosdir. Darxaqiqat tariximizni bilmasdan, uni tushunib yetmasdan turib, yoshlarimiz o'zlarini to'liq anglab yetishlari mumkin emas. Bu esa ularning tarbiyasidagi eng muxim omildir.

**Tahlil va natijalar.** Maktablarda tarix fani o'qituvchilari o'z fanini qaysi fanlar bilan uzviy bog'lab, qaysi tushunchalarni singdirishda qiyinchilikka duch kelmoqdalar? O'quvchilarga nimalarni tushintirish murakkablik tug'dirmoqda? Shu va shu kabi ko'plab masalalarning biri tarix va geografiya fanida ko'p ishlatiladigan dunyo qutblari bilan bog'liq atamalarining o'quvchi tomonidan qiyin o'zlashtirilishidir. Shunga ko'ra quyidagi lug'atni tayyorladik:

### **Dunyo qutblari bilan bog'liq atamalar...**

1. Nil daryosi Afrikaning **Shimoli - Sharqida** sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin yaratgan.

2. Misrda ikkita podsho hukmronlik qilgan. Bittasi Quyi (**Shimoliy**) Misrda, boshqasi esa Yuqori (**Janubiy**) Misrda davlatni boshqargan.

3. Misr **Janubdan** Nubiya bilan chegaradosh bo'lgan.

4. Misr **G'arbida** Liviya cho'lida shu nomdagi mamlakati joylashgan edi.

5. Sinay yarimorolidan **Shimolroqda** Falastin joylashgan.

6. Misrda o'rta podsholik fir'avnlari **Janubiy** Falastin yerlari va Nubiya **shimolini** Misrga qo'shib olishga erishdilar.

7. Shumerlar **Janubiy** Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni Shumer deb ataydilar. Mamlakatning Akkad deb atalgan **shimoliy** qismiga chorvadorlar – akkadlar o'rnashdi.

8. Bobil podsholigi Mesopotamiya **janubidagi** eng yirik qudratli davlatga aylangan

9. Urartu davlati Kavkazortidagi, hozirgi Turkiya **Sharqiy** qismida va Armaniston hududlarida joylashgan.

10. Finikiya O'rtayer dengizining **Sharqiy** qirg'og'i bo'ylab hozirgi Livan va Suriyaning bir qismida joylashgan.

11. Kaspiy dengizidan **janubi - g'arbda** joylashgan Midiyada qabilalar ittifoqlari vujudga keldi.

12. Italiyaning **Shimoli G'arbiy** qismida etrusklar yashagan.

13. Eronning **Janubi - G'arbida** Elam davlati vujudga kelgan.

14. Hindistonni Himolay tog'lari **shimoli sharqdan** dushmanlar va sovuq shamollar jovuzidan o'ziga xos tabiiy « mudofaa devori » bo'lib xizmat qilgan.

15. Chandragupta **Shimoliy** Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan Maurya davlatiga asos solgan.

16. Baqtriyaliklar Surhon vohasi, Afg'onistonning **shimoliy**, Tojikistonning **janubiy** hududlarida joylashgan.

17. Yunonistonning eng baland tog'i Olimpdur. Bu tog' mamlakatning **shimoli sharqiy** qismida joylashgan.



18. O‘rta Yunonistonning ***janubi sharqiy*** qismida tog‘lik Attika viloyati joylashgan yarimorol mavjud edi.

19. Yunonistondan ko‘chib kelganlar Sitsiliya oroli sohili va Apennin yarimoroli ***janubiga*** o‘rnashdilar.

20. Attikaning ***G‘arbiy*** qismida yunonlar “Akropol” deb atalgan qal’a quradilar.

21. Afrosiyob Samarqandning ***sharqiy*** qismida joylashgan.

22. Nautaka Qashqadaryoning ***sharqiy*** qismida joylashgan.

23. Itaka – Yunonistonning ***g‘arbida*** joylashgan.

24. Krit (Knoss) - Yunonistonning ***janubida*** joylashgan.

25. Ioniya dengizi - Yunonistonning ***g‘arbida*** joylashgan.

**Xulosa.** Hozirda har bir o‘qituvchiga darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash, umumiy bilimlaridan o‘z o‘rnida foydalanish, o‘quvchilarida ushbu muammoni xal etish ko‘nikmalarini shakllantirib borish vazifasi yuklatilmoqda. Shunday vaziyatlarda o‘quvchilarimizning tarixiy atamalarni mukammal bilishlari juda muxim deb xisoblayman, zero savollarning ko‘pchiligi shular bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob. 2012yil. Toshkent, “Ilm-Ziyo” nashriyoti.

2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. 2013 yil. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”.

3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003yil.

4. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” -Qarshi.: Nasaf, 2000 yil.

5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” -Toshkent.: Fan, 2005 yil



## BEHBUDIY PUBLISISTIK ASARLARI LEKSIKASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Masharipov Mansurbek Masharipovich*

*“Xorazm ilm ziyo”NTM ona tili va adabiyot o‘qituvchisi*  
*Telefon:+998(94)233-22-44 masharipov002@gmail.com*

*Qo‘shchanova Ro‘zika Erkavoy qizi*  
*QMU Filologiya fakulteti 105-guruh talabasi*  
*Telefon:+998(93)743-67-76*

**Annotatsiya:** Publisistik asarlarining semantik jihatdan tadqiq qilish masalalari

**Kalit so‘zlar:** Sart, publitsist, “Til masalasi”, “Xurshid”, publisistik risola, “Risolai asbobi savod”

Mahmudxo‘ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi ham edi. Chunonchi, matbuotda “Samarqandning usuli jadida maktabi Turkiston taraflarida xeyli mashhur o‘ldig‘indan faqat shuni ko‘rmak uchun vorub so‘ngra angladimki, maktabning shuhrati yolg‘uz buning muassisi o‘lon mufti Mahmudxo‘ja afandi soyasida ekan” degan mazmundagi tanqidiy maqolalar uyushtiriladi. Biroq bu kabi tazyiqlar Behbudiy va uning safdoshlarini cho‘chita olmaydi, faoliyatdan chalg‘itolmaydi. Darvoqe, mashhur tatar ma‘rifatparvari Abdurashid Ibrohimov Behbudiy va Shakuriyni “O‘zbeklar qahramoni” deya bejiz ta‘riflamagan edi.

U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida, ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785–1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug‘ullanib kelgan Behbudxo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog‘ida o‘tib voyaga yetadi. Arab sarf-u nahvini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi<sup>1</sup>. O‘z ustida qunt bilan ishlab, shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi. Yosh Mahmudxo‘ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning xizmati katta bo‘lgan. 1899–1900-yillarda Behbudiy haj safariga boradi. Dunyo ko‘rish izziz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobatul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari dunyoga keldi.

Behbudiy «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Shu yil 20-avgustdan u “Oyna” jurnali chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she‘r, maqola (forscha), e‘lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘yadi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi”sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Millat uchun oyna kerak, toki undan o‘z qabohatini ham malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuotga boshladi.

Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolana vis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, „xayoliy“, „bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik“ deb yozgan edi („Xayrul umuri avsa tuho“ – “Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir“, „Xurshid“ gazetasi 1906-yil, 6-son). O‘zlikni anglashni muhim biladi. “Qabila-sini(ng) ismini va yetti atasining otini bilmay durgonlarni” marquq“ derlar”, deb yozadi („Sarts o‘zi majhuldur“, „Oyna“ jurnali, 1914, № 23). 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layot-

<sup>1</sup> “Ma‘naviyat yulduzlari”“Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti. Tosh.1999.



gan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi<sup>1</sup>.

1916-yilda Toshkeshtga kelib Kolizeyda “Turon”ning qator spektakllarini ko‘rgan A. N. Samaylovich yozadi: “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi. Yangi adabiyotning markazi – Samarqanddir. Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Maxmudxo‘ja Behbudiydir” deya ta’kidlagan edilar<sup>2</sup>. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim”, degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi («Har millat o‘z tili ila faxr etar» – 1914, № 35), o‘zaro munosabatlari («Til masalasi» – 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e‘tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan teng huquqligi masalasini ko‘tardi («Tanqid saralamoqdir» – 1914, № 27). Millat sha‘nini oyoqosti qiluvchi fikr-qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi («Sart so‘zi majhuldur» 1915, № 22,23,25,26). Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, «xayoliy», «bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik» deb yozgan edi. O‘zlikni anglashni muhim biladi. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «manqurt» derlar», deb yozadi («Sart so‘zi majhuldur», «Oyna» jurnali, 1914, № 23).

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo‘ldi. Ular jon fido etgan istiqloq avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo‘lida fido bo‘lganlar esa shu millatva Vatan umri qadar boqiydirlar. Ushbu yilda Behbudiyning 145 yilligi mamlakatimizda keng miqyosda nishollanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov B. ”Behbudiy va jadidchilik”. „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“, 2015-3-son.
2. Nomozova N. ”Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati”. T.: 2010-y.
3. Qosimov B. ”Tanlangan asarlar”. T.: 2015-y.

<sup>1</sup> Qosimov B. ”Tanlangan asarlar”. T.: 2015-y.

<sup>2</sup> “Ma’naviyatyulduzlari” “A.Qodirynomidagixalqmerosi” matbaanashriyoti. Tosh.2000.



## САМАРҚАНД ДАВЛАТ МУЗЕЙ-ҚУРИҚХОНАСИДА САҚЛАНИЁТГАН НОЁБ ИЛМИЙ ВА ДИНИЙ КИТОБЛАР

*Самарқанд Давлат Музей қуриқхонаси  
илмий ҳодим: И.А.Раҳмонова*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Самарқанд давлат музей-қуриқхонасида сақланиётган ва кўргазмага қўйилган ноёб китоблар, ислом дининг муқаддас китоби Қуръони Карим тўғрисида сўз боради. Шу билан бирга Усмон Қуръони номи билан машҳур бўлган динимизнинг муқаддас китобининг XVII-XIX асрларда кўчирилган қулёма ва тош босма нусхалари ҳақида ҳам маълумотлар берилади.

**Калит сўзлар:** Самарқанд давлат музей-қуриқхонасида, қози колони, Мир Низомиддин Хўжа Ибн Мир Абдулғоффор, амири Амир Насруллохон, Халифа Абу Бакр Сиддиқ, қўлёзма, Садри Зиё, тош босма.



Ҳозирги кунда халқимизнинг тарихини ўрганишга эътибор кучаймоқда. Бу борада илмий муассаса бўлган музейларнинг аҳамияти ниҳоятда улқандир. Самарқанд давлат музей-қуриқхонасида ҳам бу борада улқан ишлар амалга оширилган ва оширилиб бормоқда. Самарқанд давлат музей-қуриқхонаси китоблар фондида ҳозирги кунда 1682 донадан ортиқ китоблар мавжуд бўлиб, шундан асосий фонда 1035 таси, 542 таси илмий фондда, 105 таси вақтинчалик фондда сақланмоқда [1]. Музей-қуриқхона фондида сақланиётган китоблар ноёблиги билан

ажралиб туради. Бундан ташқари музей-қуриқхонанинг қўлёзмалар фонди ҳам бўлиб унда 4 мингга яқин қўлёзма ва 1700 га яқин араб ёзувидаги турли ҳужжатлар сақланади. Уларнинг айримлари ўта ноёбдир. Хусусан, Ўзбекистон маданияти тарихи давлат музейи кўргазмасида Ўрта Осиёдаги улқан ҳажмдаги “Қуръони Карим” қўйилган бўлиб, бу Самарқанд қози колони Мир Низомиддин Хўжа Ибн Мир Абдулғоффорнинг маълумотича ҳижрий 1271 (милодий 1854-1855-йй.) йилда Бухоро амири Амир Насруллохон буйруғига биноан Самарқандлик котиб Мулла Ҳасан Самарқандий томонидан кўчирилиб, Бибиҳоним жоъме масжидига вақф қилинган. Бу Қуръон нусхасининг кийинги тағдири ўзига ҳос бўлиб, орадан 27 йил ўтиб, тахминан 1871-1872-йилларда Мир Низомиддин Хўжа розилиги ва ҳомийлигида қайта таъмирланган. Қуръон 104x156 см. бўлиб, 32 варақдан иборат. Самарқанд музейи дурдоналари китобида Қуръони Каримнинг ўлчамини 150x104 см. деб келтирилган [2]. Бундан ташқари қуръони каримнинг XVI асрга теришли Наҳл дарахти пустлоғидан тайёрланган қоғозга ёзилган араб тилидаги қулёзма нусхаси, тилло суви юритилган XVIII асрга оид нусхаси, XIX асрга тегишли араб тилидаги яна бир неча нусхалари кўргазмага қўйилган [3]. Шу ўринда Қуръони Карим тарихига бир назар ташласак. Исломдинининг муқаддас китоби Қуръони Каримнинг энг қадимий нусхаси Халифа Абу Бакр Сиддиқ (632-634) кўрсатмаси билан Муҳаммад Зайддин Собит томонидан жамлашиб, китоб ҳолига келтирилган. Кейинчалик Халифа Усмон даврида (644-656) ундан бешта нусха кўчирилиб, Мадина, Макка, Дамашқ, Басра ва Куфа шаҳарларига юборилган. Асл нусха Халифа ихтиёрида қолган ва ушу Қуръонни ўқиб турганида ўлдирилгани учун, унга тўкилган қон излари сақланиб қолган. Ислом маданиятининг энг муҳум марказларидан бири бўлиб келган Ўзбекистон заминида ҳам Қуръони Каримнинг қадимий ва ноёб қулёзма нусхалари сақланиб қолган. Биринчи Президентимиз И.Каримов 2007 йил 20 феврал куни қабулқилинган “Ҳазрати Имом (Хастимом) жамоатчилиқ жамғармасини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги қарорида “Ўзбекистон мусулмонлари идорасида сақланаётган Қуръони Каримнинг энг қадимий ва мўтабар нусхаларидан бири бўлган машҳур “Усмон Қуръони” жаҳон жамоатчилигини эътиборини ўзига тортиб келаётгани таъкидланган эди”[4].

ЎЗРФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида Қуръони Каримнинг бир варақдан иборат қадимий қуфий хатида ёзилган нусхаси сақланмоқда. Бу нусха Бухоро қози колони бўлмиш Садри Зиё кутубхонаси орқали институт хазинасига келиб тушган.




Садри Зиё номи билан танилган Шарифжон Махдум ўз даврининг илғор фикрли кишиларидан бўлиб, у ҳақиқий китоб мухлиси эди. Институтда сақланаётган 2367 раҳамли асар Садри Зиёнинг мусаввадаси бўлиб, унда Садри Зиё ўз шахсий кутубхонасида сақланаётган барча китобларнинг рўяхатини келтирган. 2460 раҳамли қўлёзма ҳам Садри Зиё қалами билан битилган бўлиб, у Садри Зиёнинг юқорида эслатилган 2367 китобига илова тарзида ёзилган. Унда муаллиф ўз қўлида сақланаётган қўлёзма асарларнинг бирма-бир тавсифини беради. Юқорида тилга олинган Қуръоннинг бир варақ нусхаси ҳам 2460 раҳамли шу саҳифаларида баён қилинган. Садри Зиё бу ерда Ҳазрати Усмонни улуғловчи қатор жумлаларни келтирар экан, “Ҳазрати Усмон ибн Аффон(р.а.)нинг муборак хати билан ёзилган калом шарифнинг бир варағи”, деб ёзади.

Бу қўлёзма аслида Шахрисабз яқинида жойлашган Катта Лангар қишлоғидаги Лангар ота мазорида сақланган Қуръони Каримнинг бир варағи экан. Унинг бир қисми Санкт-Петербургга олиб кетилган, бир варағи Садри Зиё, икки варағи Бухоро амири Музаффарнинг ўғли қўлига тушган. Қолган варақлари эса собиқ Иттифок даврида ҳар томонга тарқаб кетган. Ҳозирги кунда эса унинг 12 варағи Лангар ота мазорида сақланмоқда. Катта Лангар Қуръони ҳақида манбашунос олимлар тадқиқот ишлари олиб бориб, бир қанча мақолалар эълон қилганлар. У мазкур қўлёзманинг фото нусхаларини Ж.Виткам (1997 йилда Катта Лангарда бўлган) ва М.Жуппенинг саъй-ҳаракатлари билан қўлга киритган экан. Дерош Катта Лангардан олинган фото нусхаларни биз томонимиздан эълон қилинган фото суратлар ва Е20 раҳамли қўлёзма ҳақидаги маълумотлар билан солиштириш натижасида Катта Лангар Қуръони саҳифалари ва Е20 қўлёзмасининг парчалари Қуръоннинг бир нусхасига таалуқли, деган хулосага келган. Ҳозирда Е20 қўлёзма нусхасига тегишли бўлган қуйидаги парчалар Ўзбекистонда мавжудлиги аниқланган:

Биринчиси, ЎзРФА Шарқшунослик институтидаги 11604 раҳамли жуда яхши сақланган бир варақдан иборат нусха. Бу варақ 3-суранинг 26-61 оятларини ўзичига олади. Алоҳида қора чарм муковага олинган ушбу варақ Садри Зиё кутубхонасига тегишли бўлган. Қўлидаги қўлёзмалар билан боғлиқ маълумотларни батафсил келтирадиган Садри Зиё бу гал китобнинг на ҳарид баҳосини, на ҳарид санасини, на сотувчи номини кўрсатмаган.

Иккинчиси, Ибн Сино номидаги Бухоро вилоят кутубхонасида яхши сақланган икки варақдан иборат нусха. Улар 28-суранинг 35-81 оятларини ўз ичига олади ва Санкт-Петербургда сақланаётган қўлёзманинг етишмай турган қисмини тўлдирди.

Учинчиси, Катта Лангар қишлоғидаги Ишхия тариқати шайхлари дахмаси(мазори)да марказийча ҳолатда сақланган йигирма варақдан иборат нусха. Бошқа нусхага тегишли икки пергаментли варақ билан биргаликда марказий қисмида устанинг исми (Муҳаммад Носир) ва китобат санаси (1225-1839-40) ўйиб ёзилган кизил чармдан ишланган мағрибий муковада сақланмоқда. Варақлар Қуръоннинг 4-6 сўраларини тўлиқ ўз ичига олган ва Санкт-Петербург нусхасининг етишмайдиган қисмини ташкил қилади. Варақлар юзида қадимий хат (3-4 в) ва кўрсивда (11 в.) кўчирилган матн ва пергаментли қоғозга зарар етказган нўноқ таъмир излари бор. Шакл-андозаси айтилиши билан Санкт-Петербург қўлёзмасининг ўзи. Катта Лангар эшонлари суло-



ласидан бўлган шахрисабзлик Жўрахон Асомовнинг сўзларига қараганда, у болалигида, яъни 1941 йилда биз кўриб чиқаётган Қуръон қўлёзмасига тегишли бўлган 143 варақни кўрган. Тарих фанлари доктори, профессор А.Ҳасанов ёзганидек, “ҳозирги кунда жаҳонда “Усмон Қуръони” деган номга “даъвогар” тўрт қўлёзма мавжуд: булар Тошкентда, Қоҳирада, Истамбулда ва Топи Капу музейларида сақланаётган Қуръонлардир. “Усмон Қуръони” деб эътироф этилиши учун энг биринчи ва энг асосий шарт, бу қўлёзманинг хати бўлиб, у албатта, ҳар қандай “ҳаракат”лар, ҳар фости ва ҳар фусти нўкталаридан холи, “Мадина” ва “Хижоз” хатида ёзилган бўлмоғи даркор”[5]. Музей-қуриқхонада Қуръони Карим билан биргаликда Муҳаммад пайғамбаримизнинг Баҳрайн амирига юборган хати нусхаси, подшо Муқавқасига юборган хати нусхалари сақланмоқда.

Бу ҳужжатлардан ташқари ислом оламидаги диний пешволаридан бирининг ўз муридларига жўнатган номаси, Имом Исмоил ал-Бухорийнинг “Саҳиҳ ал-Бухорий” асари XIX асрга оид араб тилидаги тошбосма нусхаси, Ибн Синонинг “Ал-қонун фит-тиб”



асариниг 1671-йил кўчирилган араб тилидаги қулёзма нусхаси, Низомий Ганжавийнинг 1562-йилда кўчирилган “Хамса” синиг форсча қулёзма нусхаси, Муҳаммад Закариё ал-Казвинийнинг “Ажойб-ул-махлуқот” асариниг XVI асрга оид форсча қулёмаси, Абдурахмон Жомийнинг “Ал фавонд-ул-Зиёия” асариниг 1574-йил кучирилган қулёмза нусхаси, Алишер Навоий “Хамса”синиг 1755-йил кўчирилган қулёмза нусхаси ва 1871-йил кўчирилган нусхаси “Девон”, Хусайн Воъиз ал-Кошифийнинг “Тафсири Хусайиний” асариниг 1895-йилда араб ва форс тилларида босилган тошбосма нусхаси, Абдулхомид Ғаззолининг “Насихат ул-мулк” асариниг 1821-йил кучирилган араб тилидага қулёмза нусхаси, Саид Ализоданинг “Ширъат-ул-ислом” асариниг 1553-йилги қулёммаси, Сўфи Оллоёрнинг “Маслак ул-муттакийи” асариниг 1699-йил чиққан қулёммаси, Муҳаммад Салимбекнинг “Кашкули Салимий” асариниг форсча тошбосма нусхаси ҳамда купллаб араб ва форс тилидаги ҳужжатлар кўрғазмага қуйилган.

Хулоса қилиб айтганда, бу асарлар нафақат Ўрта Осиё балки бутун инсоният моддий ва маънавий мероси ҳисобланади. Шунинг учун бу ноёб асарларни ўрганиш, ҳаққоний тарихни ёритишда улкан ҳизмат қилади. Айниқса, юқорида зикр этилган асарлар нусхалари маънавий маданиятимиз тарихиниг ноёб обидаларидан бўлиб, уларни ўрганиш ва чуқурроқ тадқиқ этиш олдимизда турган муҳим илмий вазифадир. Самарқанд давлат музей-қуриқхонасида сақлқнаётган ва кўрғазмага қуйилган қулёмза, тошбосма китоблар халқимизни ўз тарихини англашга ва ёш авлодни ватанпарварлик рўҳида таърибиялашга хисса қушмоқда.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Акт приёма-передачи книжного фонда. Самарқанд. 2016 г.
2. Самарқанд Музеи Дурдоналари. Тошкент. 2004 й. 38-бет.
3. Самарқанд музей қуриқхонаси қулёмзалар курғазмаси. Самарқанд. 2019 й.
4. Камол Ф. Ёзувлар тарихидан. // Фан ва турмуш журнали; 1957 йил, № 4, 12 бет.
5. Зиеев Н. Хазрати Усмон Мусаафи қаердан келтирилган. Хидоят журнали. Тошкент. 2005 йил. 5-сон. 4 бет.



## ПАНТУРКИЗМ МАФКУРАСИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ЁНДАШУВЛАР ТЎҒРИСИДА

*Мустофаев Муроджон Олтибоевич*  
*Мустақил тадқиқотчи*  
*Телефон: +998(94) 540 04 40*  
*murodlawyer@gmail.com*

**Аннотация:** Мазкур мақолада мафкура тушунчасига қисқача таъриф берилиб, пантуркизмнинг пайдо бўлиши ва унинг асосий ғоялари тўғрисида сўз юритилади. Шунингдек, мақолада пантуркизмни ўрганиш бўйича айрим ёндашувлар муҳокама қилинган.

**Калит сўзлар:** Пантуркизм, мафкура, ғоя, сиёсий қарашлар, Исмоил Гаспиринский, ҳарбий интервенция, Кипр, Марказий Осиё, жадидчилик, Туркия, тарихий ривожланиш, Коммунистик партия, модернизация.

Тарихдан маълумки, инсоният цивилизациясининг барча босқичларида жамият ва давлат муайян ғоялар, фикрлар ва дунёқарашлар хилма-хиллиги асосида ривожланган. Йиллар давомида ўзининг долзарблигини, ҳаётийлигини йўқотмаган ва турли синовларга бардош бера олган ғоялар ҳамда фикрлар яшаб қолган ҳамда жамият ва давлатни ўзаро боғлаб турувчи мафкура сифатида шаклланган. Қайсидир жамият ўзининг ўтмиши, тарихий қадриятлари ва асрлар давомида йиғилган маънавий меросига суяниб ўзининг ғоя ва мафкураларини ярата олмас экан бундай жамиятнинг таназзулга юз тутиши муқаррар эканлигини тарих бир неча бор исботлаган.

Бугунги кунда, мафкура деганда жамиятдаги ижтимоий гуруҳлар, миллатлар ва элатлар, сиёсий партиялар, оммавий ҳаракатлар, жамоат ташкилотлари, давлат ҳокимиятининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, ахлоқий, диний, эстетик, фалсафий қарашларининг тизимлаштирилган билимлар йиғиндиси тушунилади. Шу билан бир қаторда, мафкура фан ҳисобланмайди ва фандан фарқли равишда, мафкура ўзида ижтимоий-сиёсий ҳаёт тўғрисидаги билимларни мужассамлаштириш билан бир қаторда, ижтимоий-сиёсий ҳаётда кечаётган тенденциялар, жараёнлар ва турли кучларга берилган баҳони ўзида акс эттиради. Шунингдек, ҳар бир мафкура аҳоли орасида кенг тарқалишга интилади ва айнан дунё ҳақида тўғри билим беришга даъво қилади.

Пантуркизм мафкураси ҳам ўзининг тарихий ривожланиш босқичларида бир қатор маърифатпарварланинг ғояларини ўзида мужассамлаштириб, ҳозирги Россия, Марказий Осиё давлатлари ҳамда Туркия ҳудудларида кенг ёйилган ва ўзининг тарафдорларига эга бўлган.

Пантуркизмнинг пайдо бўлишини 1880 йилларда Россия ҳудудида вужудга келган татар маърифатпарварларининг маданий либерал ҳаракати билан боғлашади. Пантуркизм назариясининг шаклланиши ва ёйилишини, шунингдек, унинг мусулмон таълим тизимини янгилаш (жадидчилик) билан боғлиқ дастури крим-татар маърифатпарвари Исмоил Гаспиринскийнинг илмий ва жамоатчилик фаолияти билан чамбарчас боғлиқ. Хусусан, Гаспиринский томонидан айтилган «Dilde, Fikirde, Iste birlik» (*Тилда, ғояда ва ишда бирлик*) сўзлар пантуркизмнинг асосий ғоясини белгилаб беради. Гаспиринский ўз қарашлари орқали Россия империяси ҳудудида яшаётган туркий халқлар олдида турган қатор муаммоларга ечим топишга, хусусан, таълим тизимини ислоҳ қилиш, янги ўқитиш усуллари-ни жорий этиш ҳамда умумий ҳаёт тарзини модернизация қилишга уринган. Ушбу янги ғояларни тарғиб қилиш мақсадида 1883 йилдан бошлаб турк ва татар тилларида “Таржимон” газетасини нашр қила бошлаган. Ушбу газетага 1918 йилга қадар, яъни большевиклар томонидан ёпилгунга қадар доимий равишда чиқиб турган. Либерал пантуркизм назариясини ўзида акс эттирувчи ягона турк дунёси тўғрисидаги қарашларини И.Гаспиринский “Таржимон” газетасида эълон қилинган “Рус мусулмончилиги. Мусулмоннинг фикрлари, қайдлари ва кузатишлари”, “Рус-шарқ битими” ва бошқа кўплаб ўзининг мақолаларида илгари сурган. И.Гаспиринскийнинг ғоялари Россия ҳудудлари, ҳозирги Марказий Осиёда туркий тилда сўзлашувчи халқлар орасида ва Кавказда ўз тарафдорларини топган. Шунингдек, И.Гаспиринский ўз таълимотида барча туркий тилда сўзлашувчи халқлар тушунадиган махсус ягона тил яратиш ғоясини ҳам илгари сурган.

Бугунги кунда пантуркизмни ўрганиш бўйича турли хил ёндашувлар мавжуд. Пантур-



кизм тўғрисида олиб борилган илмий ишлар ва тарихий адабиётлардаги маълумотлар ўрганилганда кўпроқ Совет Иттифоқи даврида яратилган манбаларга таянишни маълум бўлади. Бу эса ўз навбатида, ушбу мафкуранинг тарихий илдизларини чуқур ва холисона ёритиш имкони бермайди. Пантуркизм мафкураси бугунги кунда ўзининг аҳамияти ва долзарблигини йўқотиб ўтмиш саҳифаларида қолган бўлсада, ушбу мафкуранинг тарихий илдизларини ва асосий ғояларини ўрганиш бугунги кунда туркий тилда сўзлашувчи халқлар ўртасида олиб борилаётган ўзаро ҳамкорлик ва айрим давлатлар олиб бораётган сиёсатга холисона баҳо беришда муҳим аҳамиятга эга.

Исроиллик сиёсатшунос олим Я.Ландау пантуркизмнинг ёйилган ҳудудлари ва сиёсий таъсири жиҳатдан уни қуйидаги учта географик категорияга ажратишни таклиф қилган:

*1. Совет Иттифоқи ва бошқа коммунистик давлатлар ҳудудларида.*

Ушбу давлатлар ҳудудларида пантуркизм бутунлай таъқиқланган ва алоҳида шаклланган феномен сифатида тилга олинмасда йўқолиб кетган. Бунга биргина истисно сифатида 1986 йилнинг декабрь ойида Қозоғистоннинг Олмаота шаҳрида “Қозоғистон – қозоқлар учун” шиори остида 3000 га яқин намоёнчиларнинг чиқишлари ва бунинг натижасида Қозоғистон Коммунистик партияси Бош қотиби Д.Кунаевнинг ишдан олиниши мисол сифатида келтирилади. Ўша пайтдаги кўплаб жаҳон оммавий-ахборот воситалари ушбу намоёнчиларда пантурк контенти борлигини таъкидлашган.

*2. Коммунистик тузумга эга бўлмаган давлатларда.*

Хусусан, 1974 йилдаги ҳарбий интервенцияга қадар Кипр ҳудудида яшаган озчилик турк миллатига мансуб аҳоли орасида ушбу мафкура мавжуд бўлган. Бундан ташқари, Форсий Озарбайжон, яъни ҳозирги Эроннинг шимолий-ғарбий қисмларида яшовчи этник озарбайжон миллатига мансуб халқларнинг маданий жиҳатдан ўзлигини сақлаб қолиш учун дастлаб Шоҳ Ҳукумати ва кейинчалик Хомейнининг эронлаштириш сиёсатига қарши курашларида ифодаланади.

*3. Туркия ҳудудида.*

Я.Ландаунинг фикрича, 1980 йил сентябрь ойида Туркияда амалга оширилган ҳарбий инқилобга қадар пантуркизм нисбатан таъсирга эга бўлган бўлсада, аммо кейинчалик бутунлай ўзининг сиёсий таъсирини йўқотиб, унинг тарафдорлари Болгарияда қатағонга учраган турклар тўғрисидаги мавзулардаги қуруқ баҳслар билан чекланиб қолганини таъкидлайди.

Я.Ландау томонидан келтирилган юқоридаги таснифлаш пантуркизмни сиёсий жиҳатдан очиб беришга хизмат қилади. Тарихий нуқтаи назардан қараганимизда эса, пантуркизм фақатгина сиёсий гуруҳларга дастак бўлиб қолмасдан тили, маданияти ва анъаналари жиҳатдан бир-бирига яқин халқларнинг ҳаётида бошқа соҳаларда ҳам из қолдирганига гувоҳ бўламан. Шу нуқтаи-назардан пантуркизм мафкурасини ўрганишда тарихий-таҳлилий ёндашув мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Туленов Ж, Супов К, Ғафуров З. Истиклол ва тараққиёт мафкураси: мақсад ва йўналишлари. Тошкент. «Ўзбекистон», 1993, 12-бет.
2. <https://strana-oz.ru/2003/5/panturkizm-i-panislamizm-v-rossiyskoy-istorii>
3. Alexandre Bennigsen, «Panturkism and Panislamism in History and Today», Central Asian Survey, Vol. III (1985), No. 3, pp. 39-49.
4. Jacob M. Landau, “The fortunes and misfortunes of Pan-Turkism”, The Hebrew University, Jerusalem, 13 Sep 2007.



## QULOQLASHTIRISH SIYOSATINING QURBONI BEGIMQUL SO‘FI HAQIDA XOTIRALAR

*Ergashev Shohrux Kamoliddin o‘g‘li*  
*Guliston davlat universiteti talabasi*  
*shohruh2ergashev@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “ Quloqlashtirish “ siyosatining qurboni bo‘lgan Begimqul So‘fining hayot yo‘li va amalga oshirgan ishlari haqida xotiralardan iborat.

**Tayanch iboralar:** Dehqon, Ochamayli urug‘i, Chor hukumati, quloq, Bolsheviklar, pristav, mukldorlar.

Bizga ma‘lumki , mustabid Sovet rejimi davrida O‘rta osiyo hududida badavlat va o‘rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati amalga oshirildi. Bu siyosat natijasida qishloqlardagi badavlat va o‘rtahol dehqonlar “ Mushtumzo‘r “ (Quloq) sifatida surgun qilindi yoki xufiyona tarzda o‘ldirilib yuborildi. Bu siyosat davridayoq , minglab mulkdor dehqonlarning xo‘jaliklari tugatildi va yerlari musodara qilindi. Shunday “ Quloq “ qilingan dehqonlardan biri Begimqul So‘fi edi. Otamning otasi bo‘lmish Begimqul So‘fi 1884-yilda Farg‘ona viloyatining Yaypan uyezdida tug‘ilgan. Begimqul So‘fi o‘sha davrda Farg‘ona vodiysining eng yirik savdogari bo‘lgan O‘tam (1834-1898) savdogarning o‘g‘li edi. Begimqul So‘fining kelib chiqishi Farg‘ona vodiysida yashovchi “ Ochamayli “ urug‘iga borib taqaladi. (Izoh:”Ochamayli” urug‘i Qo‘ng‘irot qabilasining eng yirik urug‘laridan.Ushbu urug‘ istiqomat qilgan hududlar (hozirgi Surxondaryo viloyati hududlariga to‘g‘ri keladi.).Tarixiy manbalarga ko‘ra “ Ochamayli” urug‘ining bir qismi Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan.) Begimqul So‘fi 19-asr oxiri 20-asr boshlarida Farg‘ona vodiysining eng yirik mulkdor dehqonlaridan biri bo‘lgan. Begimqul So‘fining umumiy dehqonchlik qiladigan yer maydoni 32 gektar edi. U yerda asosan yollanma ishchilar mehnat qilishgan. Asosiy ekiladigan ekin turlari bug‘doy va paxta edi. 20-asr boshlarida yurtimizda ko‘plab yaroqsiz yerlar o‘zlashtirila boshlandi. Bu ishda Chor hukumati Farg‘onalik yirik dehqonlar xizmatidan foydalangan. Shunday o‘zlashtirilmagan hududlardan biri Sirdaryo bo‘yi hududlari edi. (hozirgi Toshkent viloyati Begobod tumani) Begimqul So‘fi ham shu Sirdaryo bo‘yi hududlariga kelib yerlarni o‘zlashtirishda faol qatnashgan. 1905-1910-yillarda bu hududga Begimqul So‘fidan tashqari tog‘asi bo‘lmish Alim dehqon, ukalari Salim va Umarlar ham kelib yangi yerlarni o‘zlashtirishda faol qatnashgan. Otam Ergash Begimqulovning aytishicha , bu dehqonlardan keyin yana 80 xo‘jalik ushbu hududga ko‘chib kelganlar. Kelganlarning hammasi “Ochamayli” urug‘iga mansub edi. Keyinchalik ushbu ko‘chib kelganlar bu hududda “ Ochamayli” qishlog‘ini vujudga kelishida katta xissa qo‘shganlar. Otam Ergash Begimqulovning aytishicha , Begimqul So‘fi deyilishiga asosiy sabab Begimqul So‘fi “ Ochamayli “ qishlog‘ida ilk masjid qurdirgan. Shu sababdan qishloq aholisi ushbu kishini “ So‘fi “ deb atashgan. Bu davrda Begimqul So‘fi qishloqning eng boy insoni edi. Begimqul So‘fining chorva va qo‘ylarining umumiy soni 500 tadan oshiq bo‘lgan. Begimqul So‘fi doimiy tarzda qishloqning nochor qatlamiga moddiy yordam berib kelgan. Chor Rossiyasi zamonida mulkdor dehqonlar paxtaning asosiy yetishtiruvchilaridan edi. Fevral voqealaridan keyin Chor hukumatining ag‘darilishi dehqonlarga bo‘lgan munosabatning ham o‘zgarishiga olib keldi. Bolshevik hukumati tuzilgandan keyin dehqonlar “Quloqlar” ya‘ni mushtumzo‘r deb ularga nisbatan “ Quloqlashtirish “ siyosati amalga oshirila boshlandi. 1930 -yildan boshlab Bolsheviklar tomonidan o‘tkazilgan Quloqlarni tugatish kompaniyasi yirik mulkdor va o‘rtahol dehqonlarni “ Quloq “ qila boshladi. Dehqonlarning yerlari butunlay tortib olinib, mol-mulki , chorva mollari hukumat tasarrufiga o‘tkazildi. Bolshevik komissari tomonidan chiqarilgan 1930-yilgi qarorda Begimqul So‘fi “ Mushtumzo‘r quloq “ deb atalib, Rossiyaning Kuban hududiga surgun qilingani yozilgan. Lekin bu qaror bajarilmay qolib ketgan. Chunki qishloq aholisi Bolshevik komissariga ariza yozib, Begimqul So‘fi “Mushtumzo‘r” emasligi, ayni damda Rossiyaga ketayotgan paxtaning katta qismini yetishtirib berayotganligini va nochor dehqonlarga doimiy ravishda moddiy yordam berib kelayotganini aytishgan. Komissar ushbu arizani qabul qilib Begimqul So‘fini ozod etgan. Begimqul So‘fidan tashqari uning tog‘asi Aliboy dehqon ham “ Quloq “ qilingan. Begimqul So‘fi yana ikki yil davomida paxta va bug‘doy yetishtirish bilan shug‘ullandi. Otam Ergash Begimqulovning aytishicha, Begimqul So‘fi har bahorda urug‘ligi



yo‘q dehqonlarga urug‘ berib turgan. Begimqul So‘fi o‘zi qurdirgan masjidida musofirxona ham tashkil qilgan. Ushbu qishloqdan xizmat safari bilan o‘tgan ko‘plab dehqon va savdogarlar shu musofirxonada tunab qolishgan. Begimqul So‘fi boshchiligidagi ko‘plab dehqonlar bu davrda Sirdaryo bo‘yidagi juda ko‘p yaroqsiz yerlarni o‘zlashtirib, ushbu yerlarga paxta va bug‘doy ekishgan. Begimqul So‘fi mulkdor dehqon bo‘lishi bilan birga ilmli kishi bo‘lib, arab, fors, rus tillarini bilgan, qishloqda maktab tashkil qilib, ko‘plab bolalarni savodli qilgan. Yuqorida aytganimizdek, Begimqul So‘fi 1930-yilda surgundan ozod qilingandan keyin yana ikki yil davomida dehqonchilik bilan shug‘ullandi. Lekin 1932-yilda Begimqul So‘fi xizmat safari bilan tuyada qo‘shni qishloqqa chiqqan va shu qishloqda joylashgan choyxonaga kirgan. Choyxonada o‘tirgan bir guruh rus askarlari tomonidan ushlab olinib, do‘pposlab o‘ldirilgan. Lekin ushbu ish haligacha kimning buyrug‘iga ko‘ra bajarilganligi noma’lumdir. Begimqul So‘fining uch o‘g‘li, ikki qizi bo‘lgan. Mening otam Ergash Hoji Begimqul So‘fining uchinchi o‘g‘li edi. Otam Ergash Begimqulov Begimqul So‘fi vafot etganida, ikki yashar edi. Otam Ergash Begimqulov 1947 -yilda Boyovut tumaniga ko‘chib kelgan. Begimqul So‘fining o‘g‘illari: Umar (1905-1963), Salim (1906-1983), Ergash (1930), qizlari : Oytilla (1921-2012), Zaynab (1926-2019). Xulosa qilib aytganda “ Quloqlashtirish” siyosati natijasida juda ko‘plab mulkdor dehqonlar surgun qilindi, yoki o‘ldirilib yuborildi. Bolsheviklar hukumati mulkdor dehqonlarni aholiga go‘yoki, tekinxo‘r, feodal, xalq dushmani sifatida ko‘rsatishdi. Aslida esa ular o‘z zamonining eng ilg‘or, ishbilarmon, tadbirkor kishilardan edi.

**Manba:** Begimqul So‘fining farzandlari yozib qoldirgan kundaliklarga asoslanib yozildi.



## О‘QUVCHILARGA TARIX DARSLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI.

*Mannonova Zilola Kamoliddinovna  
II-toifali, tarix fani o‘qituvchisi  
Farg‘ona viloyati Beshariq tumani  
44-umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

**Annotatsiya:** Pedagogik texnologiyalar hozirda o‘quvchining fikrlash qobiliyatini faollashtirish, o‘qitish sifatini oshirishda, o‘quvchining ijobiy sifatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

**Tayanch so‘zlar:** Innovatsion metodlar, o‘quvchilar bilim samaradorligi, pedagogik texnologiya, dars jarayonlari, ”Tushunchalar tahlili”, davr talabi

Hozirgi kunda biz kompetensiyaviy yondashuv asosida yaratilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv darsliklari asosida o‘quvchilarga bilim berib kelmoqdamiz.

Bu esa o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda yanada yaxshi natija bermoqda. Xar bir dars o‘quvchi uchun yangi axborotdir. Ayniqsa yangi o‘quv materiali orqali o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy ta’lim sifatini ta’minlovchi omildir. O‘quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko‘nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o‘yin mashqlari, rolli o‘yinlar kabi noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Mana shularni xisobga olgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O‘quv jarayonining markazida o‘quvchi shaxsi va qadri, ma’naviyati turar ekan xar bir o‘qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishlari zarur.

Shuningdek, o‘qituvchining o‘z kasbiga ijodiy yondashishi, darslarni turli texnologiyalar asosida olib borish, turli metodlar asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni tashkil etish, tarix darslarining samaradorligi oshiradi. Shu bilan birga o‘quvchiga motivatsiya berish, faollik masulitatini oshirish orqali o‘quvchilar bilim samaradorligiga erishish mumkin.

Men o‘z dars mashg‘ulotlarim davomida o‘quvchilar bilim samaradorligiga erishish uchun turli metodlardan keng foydalanaman. Shu jumladan “Klaster”, ”FSMU”, ”Tarixiy sanalar so‘zlaganda”, ”Tushunchalar tahlili”, kichik guruhlarda ishlash, darslar davomida AKT dan foydalanish orqali o‘quvchilar bilim samaradorligiga erishib kelmoqdaman.

Dars mashg‘ulotlari davomida kichik guruhlarda ish olib borish xam yaxshi samara beradi.

Tarix fanlarini o‘qitishda ”Tushunchalar tahlili usuli xam o‘quvchi bilim samaradorligini oshirishda o‘quvchilar ongini rivojlantirish, fikrlashlarini ostirishda muhimdir.

Xar bir mavzuni mustahkamlash uchun juda qulay usul. Masalan:

“G‘arbiy turk hoqonligi “mavzusi yuzasida oladigan bo‘lsak....

Mavzuga oid tushunchalar	Ularning tahlili
Aholisining asosiy qismi	chorvadorlar va ko‘chmanchilar
Yabg‘u	Xoqon To‘ng yabg‘u davrida mahalliy hukmdorlarga “yabg‘u” unvoni berilgan.
Tudunlar	xoqonlik noiblari
Turk xoqonligi va Xitoy o‘rtasidagi aloqalar	VII-asrning birinchi yarmida faollashdi

Shuningdek, konferensiya darslari xam bilimlarni umumlashtirish, mustahkamlash darslari davomida foydalanilsa yaxshi natija beradi. Bunda, o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadilar va jurnalistlar tomonidan beriladigan savollarga guruh bo‘lib javob beradilar. Keyingi bosqichda esa jurnalistlar bergan savollar yuzasidan mavzular kesimida guruh a’zolari o‘zlarining ijodiy ishlarini tayyorlaydilar. Tayyorlagan ijodiy ishlari yuzasidan xisobot beradilar. O‘quvchilar xoxishlariga ko‘ra tayyorlagan ijodiy ishlariga nom berishlari xam mumkin. Bu usul yordamida o‘quvchi bir nechta mavzuni umumlashtirishda va undagi bilimlarni o‘zlashtirishda yaxshi samara beradi.

Hozirda pedagogik texnologiyalarni dars davomida qo‘llash davr talabiga aylandi.



Darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarning fanfa bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'naltiradi, jamiyatda faol bo'lishga, milliy qadriyatlarimizni xurmat qilishga, kelajak rejalarini aniq belgilab olishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 7-sinf "O'zbekiston tarixi". A. Muhammadjonov. 2017 yil

2. Aniq fanlarni o'qitishning zamonaviy metodologiyasi. 2016 yil



## AMIR TEMUR DAVRIDA MADANIYATNING RIVOJLANISHI.

*Nigora Oripova Abdusamadovna  
Buxoro viloyati Shofirkon tumani  
19-maktab Tarix fani o'qituvchisi.*

Sohibqiron faxr bilan aytar ekanki: "Mening bir bog'im borki, u Buxorodan Samarqandgachadir ".Yana aytar ekanlarki : "Shoh Bo'lsangda ,bog' yarat ,gado bo'lsangda bog' yarat, bir kuni mevasidan totarsan".

**Annotatsiya:**Bog' yaratish , bog'dorchilik amali insoniyat taraqqiyopti tarixidagi eng ulug' kashfiyotlardan biridir.Inson ibtidoiy zamonlardan bog'ni hayot va to'kinchilik ramzi sanaydi. Barcha qadimiy diniy asotirlarda jannat mangu yashnab turgan bog'ga qiyos etiladi.Shu sababdan Sharq shoirlari go'zal bog'larni va yashil – ko'kalmazor shaharlarni "jannatmonand", "firdavsmo- nand" deya ta'rif etadilar.

**Kalit so'zlar:**Firdavsmoand, Bog'I Dilkusho, Bog'i Nav,Chorbog'lar.

Amir Temur bobomiz tabiatni, insonni sog'lomlashtirish, cho'l-biyobonlarni obodonlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirish borasida juda ko'p hikmatli so'zlarni meros qilib qoldirdi. "... Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hammomlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustida rabotni bino qilishni, daryolar ustida ko'priklar qurishni buyurdim. Kimki biron sahroni obod qilsa yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchunchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin".

Movarunnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etildi.

Qashqadaryo viloyatidagi Eski Anhor kanalini Amir Temur bobomiz Sulton Boyazid ustidan qozonilgan g'alabasi sharafiga qurgan. Tarixchi Hofiz Abro'ning yozishicha Amir Temur Xurosondagi Murg'ob vodiysida obodonchilik va dehqonchilik ishlari xarob bo'lganini ko'rib, daryodan 20 ta kanal qazdirib, suv chiqarib dehqonchilik va obodonchilik ishlariga asos soladi. Uning topshirig'i bo'yicha Ko'hak – Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklar qurildi. Shuningdek, Sirdaryodan, Ohangarondan kanal qazildi. Sohobqironning farmoyishiga ko'ra, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Farg'onada irrigatsiya – sug'orish ishlari olib borildi. Bunday bunyodkorliklar davlatning boshqa hududlarida ham davom ettirilgan. U uzoq Qorabog'da 42 km kanal qurdirgan. Ozarbayjondagi Mug'on shahrida 12 ta bog' barpo etgan.

Amir Temur davrida betakror bog'lar yaratilgan va ularga o'ziga xos nomlar qo'yilgan. Bular xususidagi dastlabki ma'lumotlar o'tmish tarixchilari, shoirlari, saayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog'lari o'rta asrlar rassomlari miniaturalarida ham tasvirlangan. Bu bog'lar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'lgan: Chorbog'lar – geometrik (to'rt burchak) shaklida bo'lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland devorlarning har burchagida minora bo'lgan. Markazda Saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan. Tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor ov qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy, qo'l tekizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy va chodirlar qurilgan. Hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan.

**BOG'I BALAND.** Sohobqiron Samarqand Shimolidagi Cho'ponota maqbarasi yaqinida (hozirgi aeroport atrofi) nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishida Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog'chilik san'ati ustalari hamda me'morlari qatnashgan. Bog' o'rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo'lib, uning atrofidagi uzumlar, anjirzor va olmazorlar boqqa go'zal bir tarovat baxsh etib turgan.

**BOG'I BEHISHT.** 1378 yilda Sohobqiron Samarqandning G'arbida suyukli xotini Xayrunisoga atab qurdirgan. Ayrim yozma manbalarda "Bog'i Jannat" nomi bilan ataladi. Bog' o'rtasidagi atrofi handaq bilan muhofaza etilgan sun'iy tepalik ustida tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo'lgan. Saroyga bir necha ko'tarma ko'priklar orqali kirilgan. Bu bog'ning bir tarafida hayvonot bog'i bo'lib, turli xil hayvonlar saqlangan.



**BOG'I DAVLATOBOD.** Bu bog' Samarqanddan 13 km Janubda, hozirgi katta O'zbekiston traktining chap tomonida bo'lgan. Amir Temur bu bog'da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, xorijiy elchilarni qabul qilgan. Unda ariqlar, to'rtta hovuz, katta saroy bo'lgan. Saroy sun'iy tepa ustiga qurilgan, atrofi handaq bilan o'ralgan. Unga ikkita ko'tarma ko'prik orqali kirilgan.

**BOG'I DILKUSHO.** (Ko'ngil ochuvchi bog') 1397 yilda Amir Temur xotinlaridan biri Tukulxonim sharafiga qurilgan. Bu bog' Samarqanddan 5 km Sharqda, Panjakent yo'lining o'ng tomonida (qadimiy Xijduvon qishlog'i o'rnida) joylashgan. Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o'ralgan. Bog'ning to'rtta darvozasi markazida hashamatli saroy bo'lgan. Saroy uch qavatli bo'lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Sohibqiron olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo'yilgan. Bu bog' o'rnida hozirgi kunda Dilkusho qishlog'i joylashgan.

**BOG'I JAHONNOMA** (Jahon ko'zgusi). Amir Temur Samarqanddan yetti farsax (42 km) narida, Zarafshon tog'i etagida qurdirgan (taxminan Urgut tumanida). Unda saroy va qal'a bo'lgan. Bog'ning hududi juda ham katta bo'lib, yo'qolib qolgan ot 6 oydan so'ng topilgan ekan.

**BOG'I MAYDON.** Cho'ponota tepaligi etagida, Samarqandning shimolida joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog'da hashamatli bir ayvon (ko'shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo'lgan. Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug'bek bu bog'ni yanada obod qilgan. Bu bog' o'rni hozir ham Bog'i Maydon deb ataladi. **BOG'I NAV** (yangi bog'). Bu bog'ni 1404 yilda Amir Temur Samarqandning Janubida qurdirgan. Lolazor qishlog'i o'rnida joylashgan. Bu bog' to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan, har burchagida minora qad ko'tarib turgan. Markazida boshqa bog'lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida katta hovuz bo'lgan. **BOG'I CHINOR.** Amir Temur Samarqandning Sharqida (Konigilning janubiy-g'arb tarafida, hozirgi Qo'shtamg'alik tepaligi o'rnida) barpo qildirgan. Unda ajoyib chinorlar ko'p bo'lgan. Bog'ning markazida saroy joylashgan. **BOG'I SHAMOL.** Amir Temur 1397 yilda nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Bu bog' Samarqandning G'arbida bo'lgan. Undagi saroy to'rtburchak shaklida bo'lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qorayog'och va fil suagidan ishlangan. Bu bog' joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham Bog'i Shamol deb ataladi.

Amir Temur bobomiz Samarqand atrofida bulardan tashqari, yana bir qancha bog' va saroylar barpo etgan. Chunonchi, **BOG'I BULDU**, **BOG'I ZOG'ON**, **BOG'I NAQSHI JAHON**, **BOG'I AMIRZODA SHOHRUX**, **BOG'CHA**, **BOG'I DILAFRO'Z**, **BOG'I SHEROI**, **GULBOG'**, **LOLAZOR**, **BEDANA KURGI**, **CHUMCHUQLIK**, **G'OZXONA** va boshqalar biri biridan qolishmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi .2005
2. Xurshid Davron "Amir Temur bog'lari"
3. R.G. de Klovixo.Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.T:O'zbekiston 2010



## TARIX FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI DARSLARDAN FOYDALANISH.

*Safarova Navbahor Zoyirovna  
Navbahor tumani 41-maktab  
Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Muammoli ta'lim ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Kalit so'zlar:** Muammo, muammoli ta'lim, muammoli ta'limning funksiyalari, muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kyechish shartlari, muammoli vaziyatlar yaratish usullari, muammoli o'qitish metodlari, muammoli o'qitishga qo'yiladigan talablar, muammoli ta'lim darajalari.

Muammoli vaziyatlar yaratish usullari:

1. O'qituvchi bolalarni ziddiyat xolatiga keltiradi va o'zlaricha yechimini topishni taklif qiladi;  
2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi. - 3. Bir savolning o'ziga har xil fikrlarni bildiradi.

4. Hodisani har xil pozisiyadan ko'rib chiqishni taklif qiladi; 5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi. 6. Aniq savollar qo'yadi, yechimini so'raydi.

7. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini suraydi.

Muammoli ta'lim sohasida qalam tebratgan M.I. Maxmudov, M.N. Skatkin, A.M. Matyugikven, I. Ya. Lerner kabi olimlarning xulosalariga ko'ra qo'yidagi metodlarni keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- reproduktiv;
- muammoli bayon qilish;
- ilmiy-izlanishli metodlari mavjud.

Muammoli o'qitish metodlari

Muammoli bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va uning mustaqil yechimini qidiradi, topadi.

Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchilarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.

Muammoli vaziyat o'quvchilarni o'zlari tomonidan vujudga keltiriladi. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanish, yangicha fikrlash orqali topadilar, o'zaro yechim qidiradilar. O'qituvchi yo'llanma, ma'qo'llash orqali passiv ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalari oldida turgan bosh maqsad o'quvchilarni har tomonlama garmonik rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy faktor uning yuqori darajada mustaqil fikrlay olishida namoyon bo'ladi. Agar o'quv jarayoni o'quvchini mustaqil fikr yurita olishga urgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchini fikrlashga yunaltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish mumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali metod, usullarni an'anaviy ta'limni amalga oshirishda didaktik yondashuv asosida olib borilishi deb tushuntiradilar.

O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor mavjud bo'lgan yo'llar bilan ustirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi taxlillar asosida ko'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil yangi axborotni oladi. Boshqacha aytganda, bu bilimni kengaytirish, chuqurlashtirishni ilgari olgan, o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zlashtirish, qo'llay bilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod
2. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. A. Abduqodirov, R. Ishmuhamedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
5. S. Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:2004



## XIVA CHODRA HOVLI SAROYI XVIII –XIX ASR

*Abdullayeva Ma'mura Boltayevna*  
*Xorazm viloyati, Xiva tumani*  
*39-maktab tarix fani o'qituvchisi*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimiy navqiron Xiva xonligidan yodgorlik bo'lib qolgan qadimiy xaroba haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, Chodra hovli, Yangiariq tumani, Muhammad Rahimxon, qarorgoh, arxetektura yodgorlik, omborxon,otxona

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.Tarix o'tmish mahsuli.XVIII asrda Xiva shahri tashqarisida xon saroyi Chodra hovli qurilgan.Chodra hovli arxetektura yodgorligi Xiva shahridan 11 km sharqda,Yangiariq tumaniga boraverishda yo'l bo'yida joylashgan. Bu betakror ko'rinisdagi bino 1871-yilda Muhammad Rahimxon tomonidan yozgi dam dam olish qarorgohi sifatida qurilgan.Binoning tagida ikkita omborxon va otxona bor.Birinchi va ikkinchi qavatlarda yashash xonalari joylashgan.

Bunday imoratlar qurilishda asosan paxsa loydan,ayrim hollarda esa yirik xom g'ishtdan foydalanganlar.Misol tariqasida to'rt qavatli chodra hovli dam olish uyini keltirish mumkin. Binoningrejadagi o'lchamlari 16x8 M, umumiy balandligi 30 metrgacha bo'lgan.Birinchi qavatdagi paxsaning eni -80sm,to'rtinchi qavatdagi sinch devor qalinligi -40sm. Binoning birinchi qavatida omborxon va otxona .

2-3 –qavatlarida dam olish ko'inishidagi xonalardan iborat.Loyli gruntlar nafaqat quruq va issiq,iqlimli joylarda qurilish ashyosi sifatida qo'llanilgan.

Ajdodlarimiz o'rta qavatli bino qurilishida zilzila bardoshlikni ta'minlovchi antiseysmik chora –tadbirlar ishlab chiqqanlar.Bunda qavat balandliginibino balandligi oshgan sari kamaytirib borishga e'tibor berganlar.Agar bino balandligi bir joyda baland ,ikkinchi joyda past bo'lsa, uning swysmik mustahkamligi shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun,binoda mana shu tarablarga e'tibor qaratilgan bo'lib, bno minora shaklida qurilgan va bunday ko'rinisdagi imoratlarda zilzilabardoshlik oshadi. Bino to'g'ri burchakli tarzda to'rt qavatli. Birinchi qavati atrofi berk ikki xonali. Undan otxona va omborxon sifatida foydolanilgan. Paxsa zinapoya yuqoriga chiqiladi. Ikkinchi qavatda turar joy g'arbga qaratib qurilgan ayvon qurilgan. Uchinchi qavatda yotoqxona, janub va g'arbga qaratib qurilgan ayvon qurilgan. Shimol tomonidan yaxlit devor o'ralgan. Yuqoriga ko'tarilish hisobiga qavatlar maydoni va devori qalinligi kamayib borgan. Shimoliy tomonda uchta darvoza bor. Bino paxsadan qurilgan. Tarzlarida tik tarnovlar bor, ichki tomoni ganch bilan suvalgan. Binoning yagona bezagi o'ymakor xarilar hamda ayvon panjaralaridir.

Chodra hovli xonlik davrida Xiva xonlarining yozgi dam olish maskani bo'lgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q " – T., "Sharq"1998.
2. Q.Muhammadrizo "Nurli izlar"-T., "O'zbekiston" 1994.
3. Xiva ming gumbaz shahri. T., "fan",1997.



## TARBIYA FANINING MOHIYATI VA VAZIFALARI.

*Djo‘rayev Rustam G‘ulomjonovich  
Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumani  
65-maktab tarix, tarbiya, davlat va  
huquq asoslari fani o‘qituvchisi*

**Annatsiya:** Ushbu maqolamda yangi joriy qilingan tarbiya fanining fan sifatida joriy etilishi va vazifalari.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiy, ota-ona, bola, ahloq, qoida.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma‘naviyatni yanada chuqur singdirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqbol g‘oyasiva ma‘naviyat asoslari”, hamda “Dunyo dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani joriy etildi.

“Tarbiya” faniga qo‘yiladigan talablar:

-o‘quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Tarbiya nazariyasi-pedagogikaning bir qismi bo‘lib, tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, qoidalari, usuli va tashkil etilishi masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya ta‘lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga hos qonuniyatlarga ega. Ta‘lim-tarbiya yaxlit pedagogic jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko‘rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug‘ilgan vaqtidan boshlanadi va muntazam ravishda ta‘lim berish bilan birga olib boriladi.

Pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biri ham o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalashdir.

Bugungi kunda mustaqil davlatimizda milliy tarbiy an‘analari tiklanib, oilaviy hayotimizda muhim mezonga aylanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sobiq sho‘ro tarbiya nazariyasida o‘rghanilishi mumkin bo‘lmagan milliy odob, milliy e‘tiqod, iymon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bog‘liq fazilatlarini yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qo‘yadi.

Maktabda ta‘lim tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o‘qituvchining tayyorgarligi, ma‘naviy qiyofasi va o‘z vazifasini qanday bajarishgagina bog‘liq bo‘lmay, balki bola yashaydigan muhit va oilaning ta‘siriga ham bog‘liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma‘naviy-axloqiy yo‘nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir. Shuning uchun ham oilada va maktabda ta‘lim-tarbiya berish maqsadida maktablarda tarbiya fani joriy etilmoqda. O‘qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligi ham bilmog‘I kerak. Shuning uchun ham muallim o‘quvchilarning ota-onalari bilan aloqaga bog‘lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi darkor.

Maktabda bolaga chuqur bilim, ta‘lim-tarbiya, mafkuraviy g‘oya, o‘zbekona milliy qadriyatlar, halol mehnat, biror bir kasb-hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek ma‘sul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma‘rifat gazetasi.2020-y
2. Internet tarmoqlaridan



## TARIX FANINI O‘QITISHDA AXBAROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.

*Nurmatov Vohidjon Shakarboyevich*  
*Navoiy viloyati Nurota tumani*  
*32-maktab tarixva huquq fani o‘qituvchisi*

**Annatsiya:** Ushbu maqolamda tarix fanini o‘qitilishi va axborot texnologiyalardan foydalanish usullari haqida yozilgan

**Kalit so‘zlar:** Xalq, jamiyat, iroda dars, texnologiyalar

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta’lim standartlariga javob bera oladigan ilg‘or tarjibalarni ommalashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo‘lida amaliy faoliyat olib bormoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o‘quvchilarning ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumit i’rta ta’lim maktablaridagi ta’lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligi uning asosiy shartlaridan biri bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o‘quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o‘rinda o‘qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo‘l kelishi amaliyot ko‘rsatib yuribdi.

Hozirgi zamon har bir o‘qituvchi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o‘rni va rolga har tomonlama qarash vazifasini yukaydi. Buning uchun o‘qituvchi ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o‘zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an’anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo‘lmog‘i lozim.

Maktablarda o‘qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix o‘zida oliyjanob fazilatllarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoyat katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabda o‘quvchi kishilik jamiyati bosib o‘tgan yo‘lni, ularni chet el bosqinchilariga qarshi, o‘z ozodligi va baxt saodati, porloq kelajagi uchun olib brogan kurashlari haqidagi asosiy ma’lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o‘quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to‘g‘ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma’lumki, tarix fani juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fani kelajakni ko‘rsatuvchi “ Ko‘zgu” desak bo‘ladi va bu ko‘zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o‘z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirhi kunda O‘zbekiston rivojlangan davlatlar orasida bo‘lish va o‘rin egallash oson kechgani yo‘q. Shuning uchun tarixni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishni o‘rgatish lozim.

Bizga ma’lumki tarix fanining asosini ma’lumotlar tashkil etadi. Ularni to‘liq eslab qolish o‘quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bu kabi ma’lumotlarni o‘quvchilar xotirasida bir umr esda qolishi, turli hil sahnali ko‘rinishlar, qiziqarli o‘yimnli usullar, krosvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs-munozaralar olib borishiga bog‘iq.

Men o‘z darslarimda o‘quvchining alohida xususiyatlariga e’tabor qaarataman. Sizga taklif etilayotgan “ Mavzuga zamin “, “ T.A.R.I.X” o‘inli usullar tarix darslarini qiziqarli o‘tishga yordam beradi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezidentimiz asarlaridan
2. Internet saytlaridan



## TARIX FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.

*Obidov Oybek Maxmudovich  
Farg‘ona shahar 8-umumiy  
o‘rta ta’lim maktabi  
Tarix fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Innovatsion texnologiya (IT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

**Kalit so‘zlar.** Innovatsion texnologiya, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», lokal, modulli,tizimli,tezkor, interfaol uslublar, Zamonaviy texnologiyalar.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur‘atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy -siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan «Innovatsion texnologiya» atamasi inglizcha «Innovation » so‘zidan olingan bo‘lib, «Yangilik kiritish » degan ma’noni bildiradi.Innovatsiya –ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan-da muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni tasniflashda quyidagi xususiyatlarga e’tibor qaratish mumkin;- faoliyat yo‘nalishiga qarab, nazariy va amaliy(pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi, o‘qitish tizimidagi); -kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (lokal, modulli,tizimli,tezkor);-kelib chiqish manbaiga ko‘ra (ta’lim muassasasi jamoasi uchun ichki yoki tashqaridan olingan);-innovatsiyalar, odatda, bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va,umuman, yangi masalalarni hal qiladi,pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishiga olib keladi. Bu o‘rinda,muammolar va maqsadlar kesishgan holatda.Yangiliklarni joriy qilish tushunchasi, nazarimizda, yangilik hamda ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir.Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.Pedagog olimlarning yillar davomida ta’lim tizimida Nega o‘ qitamiz?Nimani o‘ qitamiz? Qanday o‘ qitamiz?savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin? - degan savoliga ham javob qidirdilar.Bu esa, olim va amaliyotchilarni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni o‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin, degan fikrga olib keladi.Bunday fikrning tug‘ilishi fanda yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchi*dan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchi*dan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To‘rtinchi*dan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi.O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat



yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, vosita, shaklga ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. N.N. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. - T.: TDPU. 2003.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## QADIMGI DUNYONING YETTI MO‘JIZASI

*Hamroyeva Zamira Nuriddinovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
5-maktab tarix fani o‘qituvchisi  
Tel:90.619-80-35  
zamira.hamroyeva.1984@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi dunyodagi, o‘rta asrlardagi zamonaviy mo‘jizalar haqida ma’lumot berilgan. Ushbu mo‘jizalar inson qo‘li bilan barpo etilgan bo‘lib, o‘z davrida insonlarni hayratga solgan, ular o‘ziga xos tarixiy ahamiyatga egadir.

**Kalit so‘zlar:** Yetti mo‘jiza, tabiiy mo‘jizalar, qadimgi dunyo, o‘rta asrlar, unutilgan mo‘jizalar, zamonaviy mo‘jizalar, arxitektura, national geographics

**Yetti mo‘jiza haqida.** Qadimgi manbalarda O‘rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan va o‘z salobati, go‘zalligi bilan o‘sha zamon odamlarini hayratga solgan inshootlardan yettitasi - “Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi” deb yozib qoldirilgan. Bundan tashqari dunyoda sonlar bilan bog‘liq turli afsonalar ham yuradi. Ko‘pgina xalqlarda 7 soni xosiyatli raqam hisoblanadi. Aslida bu hech narsani hal etmasada va hech qanday ilohiy mantiqqa ega bo‘lmasada, hayotda shu son bilan bog‘liq bir qancha ajoyibotlar mavjud: 7 kun, 7 mo‘jiza, 7 xazina, 7 avlod, 7 iqlim, 7 rang, 7 sayyora, 7 dengiz, 7 farz. Quyida mashhur yettiliklar bilan tanishasiz.

**Dunyoning yetti mo‘jizasi:** Misr ehromlari, Bobil osma bog‘lari, Artimeida ibodatxonasi, Galikarnas dahmasi, Zevs haykali, Rodosdagi Gelios haykali, Iskandariya mayog‘i.

**O‘rta asrlarning yetti mo‘jizasi:** Rim kolizeyi, Iskandariya yerosti yo‘llari, Buyuk xitoy devori, Avliyo Safiya ibodatxonasi, Stounhenj, Piza minorasi, Nanjining budda ibodatxonasi

**Zamonaviy dunyoning yetti mo‘jizasi.** Amerika fuqaro muhandislik jamiyati XX asrda insoniyat tomonidan barpo etilgan quyidagi obidalarini “Zamonaviy dunyoning yetti mo‘jizasi” deb atadi. Ushbu ro‘yxat ko‘zga ko‘ringan arxitektorlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda binolarning texnik va ijtimoiy jihatlari hisobga olingan. Zamonaviy dunyoning yetti mo‘jizasi: Channel Tunnel (Angliya va Fransiyani bog‘lovchi suvosti kanali), CN Tower (Torontodagi teleminora), Empire State Building (Nyu-york shahridagi osmonopar bino), Golden Gate Bridge (San-Fransiskodagi ko‘prik), Itaipu Dam (Braziliya va Pragvaydagi tog‘on), Netherlands North Sea Protection Works (Niderlandiya Shimoliy dengiz muhofazasi), Panama Canal (Panama kanali)

**National Geographics ga ko‘ra quyidagilar dunyoning yetti mojizasi.** Katta piramida (Misr), Avliyo Sofiya ibodatxonasi (Turkiya), Piza minorasi (Italiya), Vashington maqbarasi (AQSH), Eyfel minorasi (Fransiya), Tojmahal (Hindiston), Empayr Steyt Bilding (AQSH).

**Boshqa manbalarga ko‘ra quyidagilar:** Tojmahal (Hindiston), Buyuk Xitoy devoir (Xitoy), Kolizey (Rim), Piza minorasi (Italiya), Eyfel minorasi (Parij), Pasxa orolidagi yodgorlik (Chili), Chichen Itsa piramidasi (Meksika)

**O‘rta asrlarning unutilgan yetti mo‘jizasi:** Abu Simbel dahmasi, Angkor Vat, Tojmahal, Sent Michel tog‘i, Moai Statusi, Parfenon, Shvedagagon budda ibodatxonasi. Dunyoning yetti tabiiy mo‘jizasi: Everest cho‘qqisi, Katta Barrier rifi, Grand Kan‘on, Viktoriya sharsharasi, Rio de Janeyro bo‘g‘ozi, Parikutin vulqoni, Shimoliy ko‘llar.

**Dunyoning yetti suvosti mo‘jizasi:** Palam, Beliz Barrier rifi, Galapagos orollari, Shimoliy qizil dengiz, Baykal ko‘li, Katta Barrier rifi, Chuqur dengiz ventillari.

**Dunyoning unutilgan yetti mo‘jizasi.** Big ben soati, Eyfel minorasi, Geytevey ustuni, Asvan to‘g‘oni, Guver to‘g‘oni, Mount Rashmor milliy memoriali, Petronas minoarasi

**Dunyoning unutilgan yetti tabiiy mo‘jizasi:** Anhel sharsharasi, Fundi qo‘ltig‘i, Krakatoa oroli, Klimanjaro tog‘i, Niagara sharsharasi. Iguoyu sharsharas Anhel sharsharasi, Fuji tog‘i

Dunyoning yetti mo‘jizasi haqida so‘zlaganda biz aynan yuqoridagi so‘zlar bilan dunyoning eng mashhur obidalarini haqida bilimlarga ega bo‘lamiz. Bu obidalar haqiqiy mo‘jiza bo‘lib inson aql-zakovati bilan yaratilganligini tushunamiz va tarix faniga bo‘lgan qiziqish ortadi. O‘zlarida ham yaratuvchanlik bunyodkorlik ishlariga intilish paydo bo‘ladi. Hozirgi kungacha qadimgi mo‘jizalardan qanchasi saqlanib qolganini hech kim bilmaydi, lekin bizning kunimizgacha faqat Misr ehromlari saqlanib qolganligi ma’lum.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U Jo'rayev, O' Mavlonov. Tarixdan hikoyalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2015-y .
2. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org) sayti "dunyoning yetti mojizasi uchun nomzodlar

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

**Контакт редакций научных журналов.** [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000